

THE PHENOMENON OF SYNONYMY AND THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS REPRESENTATION IN LEARNER’S DICTIONARIES

Sabina A. Amonova

O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kompyuter lingvistikasi magistratura mutaxassisligi 1- kurs magistranti

E-mail: amonovasabina59@gmail.com, [ORCID: 0009-0008-5045-3012](https://orcid.org/0009-0008-5045-3012)

Tel: (94)047 58 80

This article analyzes the theoretical foundations of the phenomenon of synonymy and the specific features of its representation in learner’s dictionaries. The lexical-semantic classification of synonyms, as well as their semantic, pragmatic, and stylistic differences, are examined, and the principles of presenting synonymic rows on the basis of a dominant unit are substantiated. In addition, the scientific, didactic, and educational functions of learner’s dictionaries are revealed, and the importance of the systematic and purposeful presentation of synonyms in such dictionaries for the language teaching process is explained.

Keywords: *synonymy, synonymic row, dominant word, learner’s dictionary, lexicography, semantic synonyms, stylistic synonyms, ideographic synonyms, language education, dictionary composition.*

ЯВЛЕНИЕ СИНОНИМИИ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕЁ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ В УЧЕБНЫХ СЛОВАРЯХ

В данной статье анализируются теоретические основы явления синонимии, а также особенности её отражения в учебных словарях. Рассматриваются лексико-семантическая классификация синонимов, их семантические, прагматические и стилистические различия, а также обосновываются принципы представления синонимических рядов на основе доминантной единицы. Кроме того, раскрываются научные, дидактические и воспитательные функции учебных словарей, а также объясняется значение системного и целенаправленного представления синонимов в таких словарях в процессе обучения языку.

Ключевые слова: *синонимия, синонимический ряд, доминантное слово, учебный словарь, лексикография, семантические синонимы, стилистические синонимы, идеографические синонимы, языковое образование, композиция словаря.*

SINONIMIYA HODISASI VA UNING O‘QUV LUG‘ATLARIDA BERILISHINING NAZARIY ASOSLARI

Mazkur maqolada sinonimiya hodisasining nazariy asoslari hamda uning o‘quv lug‘atlarida aks ettirilish xususiyatlari tahlil qilingan. Sinonimlarning leksik-semantik tasnifi, semantik, pragmatik va uslubiy farqlari yoritilib, sinonimik qatorlarni dominant birlik asosida berish tamoyillari asoslangan. Shuningdek, o‘quv lug‘atlarining ilmiy, didaktik va tarbiyaviy funksiyalari ochib berilib, ularda sinonimlarning tizimli va maqsadga muvofiq yoritilishi til o‘rgatish jarayonidagi ahamiyati bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: *sinonimiya, sinonimik qator, dominant so‘z, o‘quv lug‘ati, leksikografiya, semantik sinonimlar, uslubiy sinonimlar, ideografik sinonimlar, til ta’limi, lug‘at kompozitsiyasi.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarning ma’no munosabatlarini o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday murakkab va ko‘p qirrali hodisalardan biri – sinonimiya bo‘lib, u tilning leksik tizimida so‘zlarning ma’noviy yaqinligini, uslubiy farqlarini o‘rganadi. Sinonimiya hodisasi til boyligini oshirish, nutqni aniqlik va ifodaviylik kabi xususiyatlar bilan ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

O‘quv lug‘atlari umumiy leksikografiyaning muhim tarmog‘i sifatida ta’lim jarayonida til birliklarini tizimli va tushunarli tarzda taqdim etishga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, sinonimlarning o‘quv lug‘atlarida berilishi, ularning semantik farqlari va uslubiy xususiyatlarini ochib berish masalasi nazariy asoslangan va metodik jihatdan puxta yondashuvni talab etadi. Tilshunoslikda leksik tizim birliklarini, xususan sinonimik qatlamni nazariy va amaliy jihatdan qayta tadqiq etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, o‘quv lug‘atlarida sinonimlarning semantik, uslubiy hamda pragmatik xususiyatlarini tizimli yoritish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun sinonimlarni ilmiy asosda tavsiflovchi lug‘atlar zarur. Shu bois sinonimiya va o‘quv lug‘atlarining nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sinonimiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik munosabatlarning muhim ko‘rinishi sifatida talqin qilingan. Xususan, M. Hakimova sinonimiya tilning barcha birliklarini to‘liq qamrab olmasligini ta’kidlaydi [1]. M. Mirtojiyev esa sinonimlarni absolyut va semantik turlarga ajratib, semantik sinonimlarni ideografik, uslubiy va uzvi ta’kidli ko‘rinishlarda tavsiflaydi [2]. Bu qarashlar sinonimlarning ichki ma’no nozikliklarini ochishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv lug‘atlarining nazariy va metodologik asoslari S. Normamatov, B. Bahriddinova, N. Abduraxmonova va G‘. Abduvaxobov ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida o‘quv lug‘ati tilni o‘rgatishga xizmat qiluvchi, ilmiylik va didaktiklik uyg‘unligiga asoslangan maxsus leksikografik manba sifatida baholanadi [3], [5]. Ayniqsa, lug‘at kompozitsiyasi, maqolalarning tartibli joylashtirilishi va foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etilishi o‘quv lug‘atlarining muhim belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi [3], [4].

Shuningdek, P. N. Denisov va A. S. Gerd lug‘atni til leksikasining tizimli aks ettirilishi deb baholaydilar [6], [7]. Bu yondashuv sinonimlarni o‘quv lug‘atlarida tartibli va ilmiy asosda berish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘quv lug‘atchilikning lingvometodik yo‘nalishlari ham alohida tadqiq etilgan bo‘lib, bunda lug‘atlarining ta‘limiy vazifasi va foydalanuvchiga mosligi asosiy mezon sifatida e‘tirof etiladi [8]. Umuman, mavjud tadqiqotlar sinonimiya nazariyasi va o‘quv lug‘atchiligi bo‘yicha muhim ilmiy asos yaratgan bo‘lsa-da, sinonimlarni o‘quv lug‘atlarida semantik, uslubiy va pragmatik jihatdan uyg‘un holda yoritish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sinonimiya hodisasi va uning o‘quv lug‘atlarida berilish xususiyatlarini yoritishda tavsifiy, qiyosiy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Sinonimik birliklarning semantik, uslubiy hamda pragmatik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, o‘quv lug‘atlarining tuzilishi, kompozitsiyasi va ta‘limiy funksiyalarini baholashda leksikografik hamda lingvometodik yondashuvlarga tayanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni umumlashtirish, tasniflash va izohlash usullari asosida xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Sinonimiya tilning leksik-semantik tizimida muhim o‘rin tutuvchi hodisalardan biri bo‘lib, u nutqning aniqligi, ifodaviyligi va uslubiy rang-barangligini ta‘minlaydi. Biroq sinonimiya barcha leksik birliklarga xos bo‘lgan hodisa emas. Ayrim terminologik birliklar, aniq predmet yoki tushunchani ifodalovchi atamalar hamda tor qo‘llanish doirasiga ega leksemalar ko‘pincha sinonimik munosabatga kirishmaydi [1]. Shu jihatdan sinonimiya universal hodisa bo‘lsa-da, u tilning butun lug‘at tarkibini to‘liq qamrab olmaydi. Mazkur holat sinonimlarni ilmiy tavsiflashda ularning qo‘llanish doirasi, ma‘no hajmi va nutqiy funksiyasini alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Sinonimik munosabatga kiruvchi birliklar o‘zaro ma‘no yaqinligi asosida birlashadi, biroq ular semantik jihatdan bir xil darajada bo‘lmaydi. Shu sababli tilshunoslikda sinonimlar, avvalo, semantik yaqinlik darajasiga ko‘ra tasniflanadi. M. Mirtojyev sinonimlarni ikki asosiy guruhga ajratadi: absolyut sinonimlar va semantik sinonimlar [2]. Mazkur tasnif sinonimiya hodisasining ichki tuzilishini izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval. Sinonimlarning tasnifi va asosiy belgilari

Sinonim turi	Farqlanish mezon	Asosiy xususiyati	Misol
Absolyut sinonimlar (dubletlar)	Semantik tarkibning to‘liq mosligi	Ma’no va qo‘llanish jihatidan deyarli bir xil bo‘ladi	chega – qadoq
Semantik sinonimlar	Umumiy denotativ ma’no, lekin ma’no nozikliklari farqli	Bir tushunchani bildiradi, ammo ekspressiv yoki baholovchi farqlarga ega bo‘ladi	jilmaymoq – iljaymoq – irjaymoq
Ideografik sinonimlar	Pragmatik va konseptual farqlanish	Umumiy ma’no saqlanadi, ammo ma’no soyasi turlicha bo‘ladi	yurak – qalb – dil
Uslubiy sinonimlar	Nutq uslubi va ijtimoiy qatlamga ko‘ra	Rasmiy, badiiy, og‘zaki yoki so‘zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi	yashirin – maxfiy – pinhon
Uzvi ta’kidli sinonimlar	Denotativ ma’nodagi mantiqiy urg‘u	Harakat yoki belgi turli tomondan ta’kidlanadi	boqmoq – qaramoq – ko‘rmoq

Absolyut sinonimlar yoki dubletlar semantik tarkibi to‘liq mos keladigan birliklardir. Bunday so‘zlar ma’no, uslub va qo‘llanish jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ayrim holatlarda bir-birining o‘rnida erkin qo‘llanishi mumkin [2]. Ularning asosiy belgisi shundaki, ma’no nozikligi yoki uslubiy farq deyarli sezilmaydi. Biroq til tizimida bunday birliklar son jihatidan ko‘p emas. Shu bois sinonimiya hodisasining asosiy qatlami semantik sinonimlar orqali namoyon bo‘ladi.

Semantik sinonimlar umumiy denotativ ma’noga ega bo‘lishiga qaramay, ma’no nozikligi, baholovchi qirra, emotsional-ekspressiv tus yoki uslubiy vazifasi bilan farqlanadi [2]. Masalan, iljaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq birliklari umumiy holda kulimsirash ma’nosini bildiradi, ammo ular nutqda bir xil ta’sir uyg‘otmaydi. Jilmaymoq va iljaymoq nisbatan neytral yoki ijobiy tusga ega bo‘lsa, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq birliklarida salbiy baho, kinoya yoki qo‘pollik seziladi [2]. Demak, semantik sinonimlarni faqat umumiy ma’nosiga qarab emas, balki ularning ekspressiv va pragmatik yukiga ko‘ra ham farqlash lozim.

Semantik sinonimlarning ichki tasnifi ham bu hodisaning murakkabligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ular asosan ideografik, uslubiy va uzvi ta‘kidli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi [2]. Ideografik sinonimlarda umumiy tushuncha saqlansa-da, ma‘no soyasi yoki konseptual yondashuv farqlanadi. Masalan, yurak, qalb, dil qatorida barcha birliklar bitta denotativ maydonga mansub bo‘lsa ham, ularning pragmatik va uslubiy yuki bir xil emas. Yurak nisbatan neytral va terminologik birlik sifatida qo‘llansa, qalb hamda dil birliklarida badiiylik, hissiylik va poetik ohang kuchliroq seziladi [2]. Bu esa sinonimlarning nutqdagi qo‘llanishi faqat predmetni atash bilan cheklanmasdan, muallif munosabati va uslubiy maqsadni ham ifodalashini ko‘rsatadi.

Uslubiy sinonimlarda esa denotativ ma‘no yaqin bo‘lgani holda, birliklar nutq uslubi yoki ijtimoiy qatlamga xosligi bilan ajraladi. Masalan, yashirin, maxfiy, pinhon, xufiya, bekitiqchi, yopiq birliklari “boshqalarga bildirilmaydigan” umumiy ma‘noni ifodalasa-da, ularning qo‘llanish muhiti turlichadir. Maxfiy va xufiya ko‘proq rasmiy yoki terminologik nutqda, pinhon badiiy uslubda, yashirin va yopiq esa kundalik nutqda faolroq ishlatiladi [2]. Bu kuzatish sinonimlarning uslubiy qiymati lug‘atlarda albatta ko‘rsatilishi kerakligini ko‘rsatadi. Chunki o‘quvchi uchun ma‘no yaqinligi bilan birga qaysi birlik qaysi vaziyatda qo‘llanishi ham muhimdir.

Uzvi ta‘kidli sinonimlarda esa umumiy denotativ asos saqlanadi, ammo ma‘no tarkibining muayyan bo‘lagi alohida urg‘ulanadi. Masalan, boqmoq, qaramoq, ko‘rmoq fe‘llari ko‘rish harakati bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning har birida obyektga yo‘nalish, nigoh tashlash yoki sezish kabi semantik bo‘laklarning ta‘kidi turlicha bo‘ladi [2]. Bu holat sinonimlarning nutqda faqat almashuvchi birlik emas, balki ma‘no aniqlashtiruvchi vosita ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil jarayonida aniqlandiki, sinonimlarni tasniflash ularning o‘quv lug‘atlarida to‘g‘ri berilishi uchun nazariy asos yaratadi. Chunki o‘quv lug‘atining vazifasi so‘zlarni shunchaki jamlash emas, balki ularni ma‘no munosabatlari, uslubiy xosligi va nutqiy vazifasi bilan birga ko‘rsatishdir [3], [4]. Shu nuqtayi nazardan, sinonimlarni lug‘at maqolasida tartibli joylashtirish, ularning semantik farqlarini izohlash va dominant birlikni ajratish o‘quv lug‘atchiligi uchun asosiy talablardan biri sanaladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinonimlar lug‘atida dominant birlik markaziy o‘rin tutadi. Dominant birlik odatda uslubiy va emotsional jihatdan betaraf, ma‘no jihatdan umumiy hamda qatorning markaziy semantik tayanchi bo‘lgan so‘z hisoblanadi [3]. Masalan, go‘zal so‘zi dominant birlik sifatida olinib, undan keyin chiroyli, husnli, zebo kabi ma‘nodosh birliklar joylashtirilishi mumkin. Bunda dominant birlik lug‘at maqolasining sarlavhasi vazifasini bajaradi, qolgan birliklar esa unga nisbatan semantik va uslubiy tafovutlari bilan

izohlanadi. Bunday tartib foydalanuvchiga sinonimik qatorni yaxlit tizim sifatida qabul qilish imkonini beradi.

O‘quv lug‘atlarining samaradorligi nafaqat tanlangan materialga, balki ularning ichki tuzilishiga ham bog‘liq. Lug‘at kompozitsiyasi lug‘atning asosiy va yordamchi qismlari, maqolalarning joylashish tartibi, ta’riflash usuli va foydalanuvchiga axborotni yetkazish shaklini qamrab oladi [4]. Bu jihatlar ayniqsa o‘quv lug‘atlari uchun muhim, chunki ular pedagogik vazifani ham bajaradi. O‘quv lug‘ati nafaqat leksikografik, balki didaktik vosita bo‘lib, foydalanuvchining yoshi, tayyorgarlik darajasi va ehtiyojiga mos ravishda tuzilishi kerak [3], [5].

Tahlil davomida o‘quv lug‘atlariga qo‘yiladigan ilmiy va didaktik talablar ham muhim natija sifatida ajralib chiqdi. Ilmiylik lug‘atda berilayotgan materialning til tizimi bilan izchil bog‘langan bo‘lishini, semantik munosabatlarning to‘g‘ri aks ettirilishini va adabiy til me‘yorlariga rioya etilishini talab etadi [3]. Didaktiklik esa izohlarning sodda, tushunarli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini, foydalanuvchini faol fikrlashga undashini, leksik birliklarni kontekst asosida anglashga yordam berishini taqozo etadi [3], [5]. Demak, zamonaviy o‘quv lug‘atlarida ilmiylik va didaktiklik bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, o‘quv lug‘atlarining ta’limiy va tarbiyaviy funksiyasi ham tahlilda muhim o‘rin egalladi. Bunday lug‘atlar o‘quvchini faqat tayyor ma’lumot bilan ta’minlamaydi, balki so‘zlarni qiyoslash, tahlil qilish va umumlashtirishga o‘rgatadi [3]. Natijada foydalanuvchida leksik bilim bilan bir qatorda amaliy nutqiy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Ayniqsa, sinonimlarni ma’no nozikliklari bilan o‘rganish nutq aniqligi va uslubiy sezgirlikni rivojlantiradi. Tarbiyaviy jihatdan esa o‘quv lug‘atlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklarini tanlash orqali estetik va ma’naviy tarbiyaga ham xizmat qiladi [3].

Tahlilda o‘zbek o‘quv lug‘atchiligining shakllanish bosqichlari ham ko‘rib chiqildi. XX asr boshlarida jadidchilik harakati doirasida yaratilgan darslik va lug‘aviy ilovalar o‘quv lug‘atchiligining dastlabki ko‘rinishlari sifatida e’tirof etiladi [3]. Xususan, Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asaridagi lug‘at qismi hamda M. Brilevning darslik asosida tuzilgan o‘zbekcha-ruscha lug‘ati ilk o‘quv lug‘atlari sifatida ahamiyatlidir [3]. Keyingi bosqichda esa ma’nodosh so‘zlar va sinonimlarga bag‘ishlangan maxsus o‘quv lug‘atlarining yaratilishi bu yo‘nalishning izchil rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu tajribalar sinonimlarni ta’limiy maqsadda tizimlashtirish bo‘yicha muhim amaliy asos yaratgan.

Umumiy natija sifatida shuni aytish mumkinki, sinonimiya hodisasi nafaqat til boyligining ko‘rsatkichi, balki nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim vosita hamdir. Sinonimlarning absolyut va semantik turlarga, semantik sinonimlarning esa ideografik, uslubiy va uzvi

ta’kidli guruhlarga ajratilishi ularni ilmiy tavsiflash imkonini beradi [2]. O‘quv lug‘atlarida esa bunday tasnif dominant birlik asosida, semantik va uslubiy izohlar bilan berilgandagina foydalanuvchi uchun samarali natija beradi [3], [4]. Shunday qilib, tadqiqot natijalari sinonimlarni o‘quv lug‘atlarida tizimli, ilmiy va didaktik tamoyillar asosida yoritish zarurligini tasdiqlaydi. Bu esa til o‘rgatish samaradorligini oshirish, leksik kompetensiyani rivojlantirish va nutqning aniqligini kuchaytirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari sinonimlarning leksik-semantik tizimdagi o‘rni, ularning semantik yaqinlik darajasi va ichki farqlanish xususiyatlari muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Absolyut va semantik sinonimlar, shuningdek, ideografik, uslubiy hamda uzvi ta’kidli sinonimlar tasnifi sinonimiya hodisasining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini yoritishga xizmat qildi.

Shuningdek, sinonimlarning o‘quv lug‘atlarida berilish tamoyillari, dominant birlik asosida sinonimik qatorlarni shakllantirish masalasi hamda o‘quv lug‘atlarining ilmiy, didaktik va tarbiyaviy funksiyalari tahlil qilindi. Natijada o‘quv lug‘atlari til birliklarini tizimli o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi va o‘quvchining leksik kompetensiyasini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita ekani aniqlandi. O‘zbek o‘quv lug‘atchiligining shakllanishida jadid davri lug‘atlari alohida tarixiy bosqich bo‘lgani ham tasdiqlandi. Umuman, sinonimiya hodisasini ilmiy asosda tasniflash va uni o‘quv lug‘atlarida metodik jihatdan to‘g‘ri yoritish til o‘rgatish samaradorligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda leksik boylikni ongli ravishda o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Hakimova M. Semasiologiya. Toshkent, 2008.
2. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. Toshkent, 2000.
3. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. Toshkent, 2020.
4. Bahridinova B. “Zamonaviy o‘quv lug‘atlarining tarkibiy tuzilmasi xususida.” FarDU Ilmiy xabarlar, 2020.
5. Abduraxmonova N., Abduvaxobov G‘. “O‘quv lug‘atini tuzishning nazariy metodologik asoslari.” So‘z san’ati xalqaro jurnali. Toshkent, 2021.
6. Денисов П. Н. Лексика русского языка и принципы ее описания. Москва: Русский язык, 1980.
7. Герд А. С. “К определению понятия словарь.” In: Проблемы лексикографии: Сборник статей. СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 1997, pp. 191–203.

8. Rogaleva E. I. “К концепции интерактивного учебного словаря.” Известия ВГПУ, no. 7, 2009.